



ZEBO MIRZO SHE'RIYATIDA METAFORALARNING O'RNI

Omonova Sabohat Xolmamat qizi

Qarshi davlat universiteti Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7883451>

ARTICLE INFO

Received: 22th April 2023

Accepted: 29th April 2023

Online: 30th April 2023

KEY WORDS

Metafora, ekspressivlik, ma'no ko'chish, lirik subyekt, metaforik tafakkur.

ABSTRACT

Metafora — ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham uning tasnifi bir necha jihatni qamrab olishi shubhasizdir. Bu ko'chim asos metafora, ochiq, ekspressiv, nomuntazam, lug'aviy metafora hisoblanadi. Metaforaning kuchi shundaki, jumlani qisqa va aniq, ta'sirchan aks ettiradi. Har qanday lingvistik hodisa kabi metafora ham lisoniy asosga ega.

Badiiy asarda eng ko'p qo'llanuvchi ko'chim turlaridan biri metaforadir. Metafora usulidagi ma'no ko'chishida narsa-hodisalar orasidagi o'xshashlikka asoslaniladi. Tabiatan, metaforani yashirin o'xshatish deb atash mumkin. Yashirin o'xshatish deb atalishiga sabab shuki, metaforada o'xshatilayotgan narsa nomi tushirib qoldirilgani holda, o'xshayotgan narsa nomi uning ma'nosini bildiradi. Tabiiyki, bunda o'xshatilayotgan narsalardan aynan o'xshashlik talab qilinmaydi, asos uchun ikki narsa-hodisaga xos belgilardan birortasi olinadi. Metafora deganda, narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik tushuniladi, ya'ni nutqqa obrazlilik, emotsiya berish maqsadida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'zlar va iboralarning ko'chma ma'noda ishlatilishidir. Metafora — ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham uning tasnifi bir necha jihatni qamrab olishi shubhasizdir. Bu ko'chim asos metafora, ochiq, ekspressiv, nomuntazam, lug'aviy metafora hisoblanadi. Metaforaning kuchi shundaki, jumlani qisqa va aniq, ta'sirchan aks ettiradi. Har qanday lingvistik hodisa kabi metafora ham lisoniy asosga ega.

Metafora tushunchasi paydo bo'lganidan beri unga aloqador bo'lgan minglab ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar amalga oshirilgan. Metafora faqatgina bir ko'chim turigina hisoblanmay, obrazli fikrashning muhim quroli ham hisoblanadi. Har bitta badiiy tasvir vositalarini o'z o'rnida, chiroyli qo'llash shoirdan o'ziga xos mahoratni talab etadi. Metafora nutqning ta'sirchanligiga o'zining ta'sirini ko'rsatishini bir qancha misollar yordamida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Shoira ijodi ham metaforalarga boy. Uning she'rlaridagi metaforalar takrorlanmas, ta'sirchandir. Endi shoira she'rlaridagi metaforalarga e'tibor qaratsak:

Shundanmi mehr yo iltifotingiz,

Taftidan gohida buzildi tinchim.

Ruhimga nur berdi issiq yodingiz,

Ismingiz kechalar bo'ldi o'tinchim.



Ushbu parchada issiq yodingiz metaforasini ko'rishimiz mumkin. She'r g'amgin, buni ilk misradanoq o'quvchi sezishi mumkin. Zebo Mirzo ijodiga nazar soladigan bo'lsak, uning ijodi bugungi o'zbek she'riyatining yorqin namunasidir. Shoir she'rlarida yetakchi mavzu bu ishq mavzusidir. Uning ishq shunchaki oddiy muhabbat emas, balki ilohiyotga yaqin bo'lgan ishqdir. Shuning uchun ham shoir she'rlaridagi lirik qahramon Haq oshig'i va u o'z holini, ishqini Yaratganning inoyati, deya qabul qiladi. Oshiq mana shu ishq sabab Allohdan najot kutadi, gunohlaridan o'tishini so'raydi, panoh tilaydi.

Metafora - lirik subyekt kayfiyatini berish, emotsionallikni belgilashning tengsiz vositasidir. Buni shoiraning quyidagi she'ri misolida ko'rsatishimiz mumkin:

Seni juda achchiq yig'latdim,
La'nat toshin otding tonggacha
Yopilmadi osmon eshigi,
Yurib chiqdim o'zdan tonggacha...

Parchada achchiq yig'latdim metaforasi qo'llangan. Haqiqiy she'r shoirning yuragidan to'kilgan satrlardir. Va bu satrlar orqali ijodkorning o'z —meni nomoyon bo'ladi.

Shoir metaforalari milliy turmush tarzi, xalqning urf-odatlarini, ishonch-e'tiqodlari, folklor an'analari kabi manbalardan oziqlanadi. Metafora (umuman obraz) yaratish uchun murojaat etayotgan manbalar nihoyatda boyligi shoir ijodida metaforik (obrazli) tafakkur teranligi, metaforalarning rang-barangligini ta'minlovchi omildir. Shoir ijodidagi metaforalarga yuzlansak:

Bu sokin bog'larda, tanho bog'larda
Kimsasiz kuzakning dardlari sarson.
Umrday egilgan tolg'in shohlarda
Bejavob savolday uchadi mezon.

Bu tanish bog'larda, g'anim bog'larda
Dilimni tortadi noma'lum so'qmoq.
Nigohlar izmidan ayrilib birdan
Ketgim kelaverar biz bilan biroq

Mening jism-u jonim yongan chog'larda
Quyosh-u nimadir-lovullagan chog'.
Bu xazin bog'larda, xazon bog'larda
Nahotki bilmaysiz, bizdan boshqa yo'q

Chiqib ketolmaymiz, ikkalamiz ham
Bu to'g'ri yo'llarning toshi yaniydi
Bu qadim bog'larda, sirli bog'larda
Siz bilan adashib ketsam qaniydi!...

Ushbu she'riy parchadagi sokin bog', tahno bog', tanish bog', g'anim bog', sirli bog' metaforalari qo'llangan. Shoir ijodidagi she'rlar garchand g'amli, tushkun bo'lsa ham, u o'zining sehrli olamiga ega. Bu olamning nomi "KO'NGIL". Uning egasi esa har kimning



o'zidir. Shoira she'rida yolg'izlikni, sokinlikni tarannum etgan. Bog' timsolida bu hayot yashirilgan. Ya'ni bu hayotda shoira o'z yori bilan yolg'iz qolishni, u bilan birga bo'lishni istaydi. Shoira metafora qo'llashda boshqa ijodkorlarga nisbatan o'z individual uslubiga ega. Suning uchun ham shoira she'rlaridagi metaforalar takrorlanmas, ta'sirchandir. Shoira she'rlaridagi metaforalar ixcham, oddiy bo'lishiga qaramay, undagi ma'no juda kengdir. Va bu ma'no she'rga o'zgacha bir olam baxsh etadi. Mana shu olamda esa shoira nafas oladi, yashaydi, ulg'aydi. Bu olamni she'rlari orqali yosh ijodkorlarga, yosh kitobxonlarga ham ko'rsatmoqda.

Shoira she'rlaridagi metaforalardan namunalar e'tibor qaratsak:

Hayot qanday go'zal,

Yashash qanday baxt

Olam burkanganda oppoq nurlarga.

Osmonni ko'tarib qo'llaringga shahd

Aylanib ketolsang keyin hurlarga.

Ushbu parchada oppoq nurlar metaforasi qo'llangan bo'lib, oppoq so'zi aslida qor so'ziga nisbatan qo'llanilishi lozim. Shoira uni metaforik yo'l bilan boshqa bir ma'noli so'zga ko'chirgan. Shoira she'rida bu hayotda yashashning go'zalligi, bu go'zal hayotda yashash esa bir baxtligini ta'kidlaydi. Bu hayotda doim kulib yashash, orzular qilish she'rda tasvirlangan.

O'yinqaroq

Tog'larning seli,

Ular izlab o'tirmas o'zan.

O'ngirlardan

Sirpanib kelib

Chopib ketar yo'llar izidan.

Ushbu parchadagi o'yinqaroq tog' metaforasi she'rning ta'sirchanligini oshirgan. To'g'ri, metafora yangi emas. Lekin uni boshqa so'zlar turgani uchun har safar yangi bir emotsional bo'yoq, shu bo'yoq tufayli yangicha jilo beruvchi qirrasini namoyon etaveradi.

Olis - olis edi osmonim,

Olis - olis orzum edingiz...

Yorug'-yorug' xayollarimdan

Yuragimga kirib keldingiz.

Qo'llarimda bir lahza turmay

Suvga tushib ketgan gavharim.

Och to'lqinlar - g'animimgami

G'amimgami

Sizni asradim?

Yuqoridagi parchadagi metaforalarni lingvistik jihatdan tahlil etsak. Ushbu parchada "yorug'-yorug' hayollarim" va "och to'lqinlar" metaforalari qo'llangan. "Yorug'" leksemasi odatda ko'ngil leksemasi bilan ko'chma ma'nodagi birlikni hosil qiladi. Ya'ni, ko'ngli toza, beg'ubor m'anolarida. She'rda keltirilgan yorug'xayollar birligida esa sof, beg'ubor xayollar, orzu, istak ma'nolari anglashilib kelgan. Och to'lqinlar birligida esa ag'yorlar ya'ni dushmanlar ma'nosi ifodalanib, sinestetik metaforani yuzaga keltirgan. Metaforaning



taʼsirida bir qarashda oddiy, joʻn boʻlib koʻringan misralar badiiy qimmati, ifodaliligi, ekspressivligi kuchayib, sheʼrning jozibasini oshirgan.

Zebo Mirzo sheʼrlarida badiiy aktuallashgan leksik vositalardan metaforalarni, xususan, sinestetik metaforalarni qoʻllash ham oʻziga xos. Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa va tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga oʻxshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda koʻchma maʼno yuzaga keladi.

Yomgʻir yogʻar
Nurlar yomgʻiri,
Kulib, yigʻlab ochiladi kun.
Yuragingni qiynar ishq siri,
Derazaga qaraysan mahzun.
Choʻmiladi daraxtlar bargi
Mayning mayin yomgʻirlarida.
Oqib ketar dillarning zangi
Shaffof koʻzyoshlarning bagʻrida.
Tutolmaysan hovuchlaringni,
Hovuchingda gullar atri bor.
Tortib qoʻyma darpardalarni,
Nigohingda koʻngil dardi bor
Yomgʻir yogʻar,
Nurlar yomgʻiri

Koʻrib turganingizdek, parchada berilgan mayin yomgʻir va shaffof koʻzyosh kabi metaforalar sinestetik metaforalardir. Xususiyat bildiruvchi "mayin" leksemasi "nozik, dilga yoquvchi", shaffof leksemasi "toza, pok" maʼnosida kelgan. Shoir sheʼrlarida yomgʻir koʻp bora tilga olinadi. Bundan koʻrinib turibdiki, shoir yomgʻirni yaxshi koʻradi. Nafaqat yaxshi koʻradi, yomgʻirda u oʻzini oʻzga bir olamga tushib qolgandek his etadi. Shu olamda oʻtayotgan vaqtning har bir soniyasining qadriga yetadi.

References:

1. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent Fan 2007.
2. Zebo Mirzo Nur kukunlari. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2004.
3. Zebo Mirzo. Ishq. Toshkent. Akademnashr. 2011.
4. www.ziynet.uz